IQTISODIY RIVOJLANGAN DAVLATLAR TA'LIM TIZIMI

EDUCATION SYSTEM OF ECONOMIC DEVELOPED COUNTRIES
СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИ РАЗВИТЫХ СТРАН

[1] Tolipov Shohislom Dilshodbek o'g'li,

[2] *Turdiyeva Shoxidaxon*

[1]Andijon davlat pedagogika instituti, Kimyo yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

[2]*Andijon davlat Pedagogika instituti*

Psixologiya va pedagogika fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi:

.

Annotatsiya: Maqolada ta'limning inson kapitalini rivojlantirish va iqtisodiy o'sishdagi ahamiyati yoritilgan. Koreya, AQSh, Kanada va Germaniya ta'lim tizimlari misolida Janubiy Koreya tahlil qilingan. Kanada, Koreyada innovatsion tizim, Kanadada ko'p tillilik, Germaniyada dual ta'lim tizimi ko'rsatib berilgan. Xorijiy tajribalarni o'rganish va milliy tizimga moslashtirish ta'lim sifatini tozalashda muhim xavfsizlik ega.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, inson kapitalini rivojlantirish, iqtisodiy taraqqiyot, komparativ pedagogika, Janubiy Koreya Koreya, AQSh ta'lim modeli, Germaniya dual ta'limi, innovatsion va interaktiv ta'lim.

Аннотация: В статье подчеркивается важность образования в развитии человеческого капитала и экономическом росте. Анализируются образовательные системы Кореи, США, Канады и Германии в Южной Корее. Представлены инновационная система в Канаде и Корее, многоязычие в Канаде и дуальная система образования в Германии. Изучение зарубежного опыта и его адаптация к национальной системе являются важными гарантиями повышения качества образования.

Ключевые слова: Система образования, развитие человеческого капитала,

экономическое развитие, сравнительная педагогика, Южная Корея, модель образования США, немецкая дуальная система образования, инновационное и интерактивное образование.

Abstract: The article highlights the importance of education in the development of human capital and economic growth. The educational systems of Korea, the USA, Canada and Germany are analyzed in South Korea. An innovative system in Canada, Korea, multilingualism in Canada, and a dual education system in Germany are shown. Studying foreign experiences and adapting them to the national system are important safeguards in improving the quality of education.

Key words: Education system, human capital development, economic development, comparative pedagogy, South Korea, US education model, German dual education, innovative and interactive education.

Kirish: Hozirgi kunda barchamizga ma'lumki, ta'lim inson kapitalini r ivojlantirishga hissa qo'shadigan eng asosiy vositalardan biridir. Ta'lim orqali zamonaviy iqtisodiyotda ishtirok etish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar shakllantirildi hamda insonlarga zamonaviy va tez o'zgaruvchan mehnat bozoriga moslashish imkonini yaratadi. Shu boisdan ham aholining bilim olishi masalasi nafaqat tadqiqotchilar, bali siyosatchilar va iqtisodchilarning ham diqqat markazida turadi.Ta'limning mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sirini klassik iqtisodchi olimlar ham, hozirgi zamon olimlari ham birday o'rganishgan. Jumladan, klassik iqtisodchi Adam Smitning “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqot” asarida mehnat unumdorligini oshirishda ta'limning muhimligi alohida ta'kidlangan. Ushbu asarda ilmli xodimlar zamonaviy usul va texnologiyalardan samaraliroq foydalanishi mumkinligini tadqiq etilgan. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida har jihatdan rivojlangan kishini tarbiyalash muammosi hozirgi kunning asosiy talabi bo‘lib turibdi. Chunki, jamiyatda yuz berayotgan inqilobiy uzgarishlarni insonning uzini uzgartirmasdan amalga oshirib

bulmaydi. Ammo, yangi kishini tarbiyalash o‘z-o‘zidan emas, balki ijtimoiy munosabatlar yangilanishi jarayonida amalga oshadi. Bu jarayonda maktablar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mamlakatimizning Koreya davlati bilan aloqlari toboramustahkamlanayotgan bir paytda mazkur mamlakat ta`lim tizimini o`rganish alohida dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Koreys mo‘jizasining omillaridan biri mehnatsevar aholisi bo‘lsa, yana bir jihati Janubiy Koreyadagi o‘ziga xos ta’lim tizimidir. Ushbu mamlakatning ta’lim tizimi besh bosqichli: o‘qish —boshlang‘ich maktabda 6 yil, ikkinchi bosqich maktabida 3 yil, yuqori maktabda 3 yil, kollejda 2 yil, universitetda esa 4 yildan iborat. Faqat boshlang‘ich va ikkinchi bosqich maktabida ta’lim olish majburiy hisoblanadi. Maktablarda ko‘pincha matematika, koreys va ingliz tillari, aniq va ijtimoiy fanlarga ko‘proq ahamiyat beriladi. E’tiborlisi, barcha ta’lim muassasalarida yuqori tezlikdagi internetdan foydalanishimkoniyati mavjud. Koreys o`quvchilari maktabda 12 yil mobaynida ta`lim oladilar. Koreys maktablarida o`quvchilarning reytingi muntazam ravishda tuzib boriladi va bu reytingda imkon qadar yuqori o`rinlarni egallash o`ta muhimdir, chunki oldinda universtetlarga kirish imtihonlari bor. AQSh va Kanada kabi mamlakatlarda til o‘rganish jarayoni talabalarni faol interaktiv mashg‘ulotlar orqali jalb qilishga qaratilgan. Ingliz tili darslari ko‘pincha projekt asosida, suhbat klublari, amaliy ishlar va interaktiv simulyatsiyalar orqali olib boriladi. Shu bilan birga, ko‘plab universitetlar til o‘rganish bo‘yicha o‘zaro almashuv dasturlarini taklif qiladi . Masalan, AQSh universitetlarida talaba chet tilini o‘rgangan holda xalqaro konferentsiyalarda ishtirok etadi, bu esa nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki ilmiy va madaniy tajribani oshiradi. XXI asrda komparativ pedagogika fani global muammolar —raqamli ta’lim, inklyuziv ta’lim, o‘qituvchi malakasini oshirish va xalqaro baholash tizimlari (PISA, TIMSS, PIRLS) —bilan bevosita bog‘lanib ketdi. Shu bois ko‘plab mamlakatlarda bu yo‘nalishdagi ilmiy markazlar faoliyat yuritmoqda. Misol uchun, AQShda —

“Comparative and International Education Society (CIES)”, Yevropada esa “European Educational Research Association (EERA)” bu borada yetakchi rol o‘ynaydi.

Ta’lim tizimlarini qiyosiy tahlil qilish jadvali

Mamlakat	Ta'lim tizimi xususiyatlari	Asosiy yo'nalishlar	Muhim jihatlar
Janubiy Koreya	5 bosqichli tizim, 12 yillik maktab ta’limi	Matematika, tillar, aniq fanlar	Kuchli yuridik, reyting tizimi, yuqori intizom, internet bilan ta'minlanganlik
AQSh	Moslashuvchan va shtatlar darajasida mustaqil tizim	STEAM, innovatsion va interaktiv ta'lim	Mustaqil fikrlash, ijodkorlik, masofaviy ta'lim, xalqaro yordam
Kanada	Ko'p tillilik va inklyuziv ta'lim	Til o'rganish	Jamiyatga moslashgan ta'lim, interaktiv metodlar
Germaniya	Differensial va dual ta'lim tizimi	Kasb-hunar va amaliy ta'lim	Amaliyot va nazariya uyg'unligi, mehnat bozoriga tayyorlash

Kanada ta’lim tizimida esa bilingvizm va ko‘p tillilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi, bu esa tilni o‘rganish jarayonini jamiyatning turli qatlamlariga moslashtiradi. Amerika Qo‘shma Shtatlari ta’lim tizimi o‘zining

moslashuvchanligi va amaliy yo‘nalganligi bilan ajralib turadi. Ta’lim jarayoni o‘quvchining individualqobiliyatini rivojlantirishga, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Komparativ pedagogika nuqtayi nazaridan AQSh modeli boshqa davlatlar uchun bir necha sababga ko‘ra qiziqarli:Ta’lim dasturlari federal emas, balki shtatlar miqyosida mustaqil ishlab chiqiladi;Innovatsion texnologiyalar, masofaviy ta’lim va STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yo‘nalishlari keng qo‘llaniladi;O‘qituvchilar malakasini oshirish tizimi uzluksiz tarzda amalga oshiriladi.Bunday yondashuv ta’limni markazlashgan tizimdan erkinlashtirishga, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Germaniya ta’lim tizimiGermaniya ta’lim tizimi o‘zining differensial (bo‘lingan) tuzilmasi bilan ajralib turadi. O‘quvchilar 10 yoshdan boshlab o‘z qobiliyatiga qarab gimnaziya, realshule yoki hauptshulega yo‘naltiriladi. Bu tizim har bir o‘quvchining imkoniyatini real baholash vaularni mehnat bozoriga tayyorlashga xizmat qiladi.Komparativ pedagogika nuqtayi nazaridan Germaniya tajribasi —ta’lim va kasb-hunar tizimining integratsiyasida ilg‘or model hisoblanadi. Ayniqsa, dual ta’lim tizimi (ya’ni o‘quv jarayoni va ishlab chiqarish amaliyotining uyg‘unligi) bugun ko‘plab davlatlar, jumladan O‘zbekiston uchun ham dolzarbdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ta'lim inson kapitalini rivojlantirish, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Zamonaviy mehnat bozori va bilim, ko'nikma malakaga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash har bir davlatning barqaror yo'nalishiga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim nuqtasi bevosita mamlakatning harakatbardoshligini oshirish.Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Janubiy Koreya ta'lim tizimi intizom, yuqori talabchanlik va kompyuter texnologiyalaridan keng qo'llab-quvvatlanadi. AQSh ta'lim modeli asoslilik, innovatsion rivojlanish o'quvchilarning individual tarbiyani rivojlantirishga. Kanada ta'lim tizimi ko'p tillilik va inklyuzivlik jarayonlari bilan, Germaniya esa dual ta'lim tizimi orqali nazariy bilim va amaliyot uyg'unligini ta'minlash bilan e'tiborga loyiqdir.

Komparativ nuqtayi nazaridan zamonaviy tajribalarni o'rganish va tekshirish pedagogikasini milliy ta'lim tizimiga joriy etish muhim kasb etadi. shaxsiy, shaxsiy ta'limni rivojlantirish, o'qituvchilar malakasini tuzatish, amaliy ta'limni ishlab chiqarish va xalqaro standartlarga moslashtirish sifatini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.Shunday qilib, milliy ta'lim tizimlarini chuqur tahlil qilish va ularni o'z sharoitimizga moslashtirish O'zbekiston ta'limini modernizatsiya qilishda strategik yo'nalishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim vazirligi. Oliy ta’lim muassasalarida sifatni oshirish bo‘yicha tavsiyalar. –Toshkent, 2022.
2. Komiljon o‘g, Y. O. A. (2025). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA CHET TILINI O ‘RGANISHDAGI YUZAGA KELADIGAN QIYINCHILIKLAR.Ustozlar uchun,74(2), 195-199.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev nutqlari to‘plami. Toshkent, 2023.
4. Karimova R. Komparativ pedagogika asoslari. Toshkent: Fan, 2020.